



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE PRACTICE OF BANK LENDING FOR THE FOREIGN TRADE ACTIVITIES OF BUSINESS ENTITIES

ʻIbodullayeva Maʼrifat Toʻlqin qizi

¹Oʻzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Tijorat banklarining valyutaviy kreditlari xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Jumladan, tijorat banklarining overdraft kreditlari eksport qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarishning uzluksizligini taʼminlashning zaruriy vositasi hisoblanadi. Shuningdek, maqolada respublikamiz tijorat banklarining xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - Foreign currency loans from commercial banks are an important source of financing for the foreign trade activities of business entities. In particular, overdraft loans from commercial banks are a mandatory means of ensuring uninterrupted production of exported goods. The article identifies current problems related to improving the practice of financing the foreign trade activities of business entities of commercial banks of the republic.

Kalit soʻzlar: Keywords:

- ❖ *tijorat banki, xoʻjalik subyekti, tashqi savdo, eksport, import, kredit, depozit, inflatsiya, foiz stavkasi.*
- ❖ *commercial bank, business entity, foreign trade, export, import, loan, deposit, inflation, interest rate.*

Kirish.

Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari koʻrish, respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish makroiqtisodiy oʻsish surʼatlarining barqarorligini taʼminlashning zaruriy shartlari

sifatida belgilangan [1] hamda Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga moʻljallangan strategiyasida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining moʻtadil oʻsishiga amal qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlashni mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlari sifatida eʼtirof etilganligi [2] tijorat banklarining xoʻjalik yurituvchi

subyektlarning tashqi savdo faoliyatini kreditlash amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

M. Martensen amalga oshirgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, xorijiy banklar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yirik milliy eksportyorlarni kreditlash orqali ularning tashqi bozorlarda xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishida muhim rol o'ynagani holda, o'zlari ham tashqi savdoni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniga ega bo'ladi [3].

M. Martensenning mazkur tadqiqoti natijalari respublikamiz banklarining kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini kreditlash amaliyoti uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, tijorat banklarining kreditlari hisobidan import bo'yicha to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash kompaniyalarning eksport salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega; ikkinchidan, respublikamiz banklari kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini kreditlash uchun zarur bo'lgan resurslarni xalqaro ssuda kapitallari bozorida va xalqaro fond bozorida jalb qilish yo'li bilan o'zlarining tashqi savdoni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya darajasini oshirishlari mumkin.

D. Lopatinaning fikriga ko'ra, xalqaro faktoring tashqi savdoni moliyalashtirishning samarali zamonaviy mexanizmi hisoblanadi. U nafaqat eksportyorning joriy faoliyatini kreditlash, balki uning kredit riskini minimallashtirish, xalqaro biznesni yuritish bilan bog'liq bo'lgan noma'lum qonunchilik, xorijiy til, debitor qarzdorlikni undirishning noma'lum tartibi, kontragentning mamlakatidagi savdo amaliyoti kabi muammolarni hal qilish imkonini ham beradi [4].

Haqiqatdan ham, xalqaro faktoring tashqi savdoni kreditlash shakli bo'lib, u eksportyorning xorijiy valyutaladagi debitor

qarzdorligining aylanish tezligini oshirish, kredit riskini kamaytirish imkonini beradi.

A. Smirnovning xulosasiga ko'ra, xalqaro kreditlar hisobidan korxonalarining eksportini kreditlash amaliyoti davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Mazkur moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari bo'lib, kreditlarni davlat tomonidan kafolatlash va foiz stavkalarini bonifikatsiya qilish hisoblanadi [5].

A. Smirnovning ushbu xulosasi respublikamiz bank amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, birinchidan, banklarning eksport kreditlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti mavjud emas; ikkinchidan, xorijiy kredit liniyalari hisobidan berilayotgan kreditlarning foiz to'lovlarini bonifikatsiya qilish amaliyotga joriy etilmagan.

N. Xmelevskayaning fikriga ko'ra, xalqaro moliya institutlarining faoliyatida qo'llanilayotgan Favqulodda kredit liniyasi (Contingent Credit Line) quyidagi xususiyatlarga ega:

- ❖ tashqi savdo balansidagi nomutanosiblikni tartibga solish vositasi hisoblanadi;

- ❖ global moliyaviy qiyinchiliklar davrida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi;

- ❖ kapitalning uzoq muddatli harakati bilan bog'liq bo'lgan inqirozlarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi;

- ❖ kredit liniyasi doirasida kredit ajratilayotgan paytda o'sha mamlakatning hukumatida o'rta muddatli to'lovlarni amalga oshirishda muammo bo'lmasligi kerak;

- ❖ XVFnning Direktorlar kengashi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha ijobiy xulosa bergan bo'lishi kerak [6].

F. Axmedovning fikriga ko'ra, an'anaviy forfeytingni respublikamiz amaliyotida qo'llab bo'lmasligining asosiy sababi shundaki, respublikamizda eksportchi va importchi korxonalarining birontasi ham xalqaro reyting agentliklarining reyting baholariga ega emas. Shu sababli, ular tomonidan akseptlangan

tijorat vekselarini xorijiy banklar sotib olmaydi [7].

J. Majidovning xulosasiga ko'ra, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi sababli xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit to'loviga layoqatliligi pasaymoqda, inflatsiya va milliy valyutaning devalvatsiya sur'atining yuqoriligi natijasida tijorat banklari tomonidan milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymati pasaymoqda. Haqiqatdan ham, 2017-yil sentabr oyida milliy valyutani xorijiy valyutalarga nisbatan keskin qadrsizlantirilganligi xo'jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy valyutalarda olgan kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari summasini keskin oshishiga olib keldi [8].

I. Alimardonovning taklifi bo'yicha, kichik biznes subyektlarining (shu jumladan, agrar sohada faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining) tashqi savdo faoliyatini kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun ularning hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasida amalga oshiriladigan to'lovlarini tijorat banklarining muddatli va overdraft kreditlari hisobidan to'lanishini joriy qilish kerak [9].

I. Alimardonovning ushbu xulosasi tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi

subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizning tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismini qoplangan akkreditivlar tashkil etmoqda; ikkinchidan, hozirga qadar kichik biznes subyektlarining import to'lovlari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarni tijorat banklarining muddatli va overdraft kreditlari hisobidan to'lash yo'lga qo'yilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy kredit liniyalari orqali respublikamizning tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining real sektorini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi, foizda

<i>Moliyalashtirish manbalari</i>	<i>2020-y.</i>	<i>2021-y.</i>	<i>2022-y.</i>	<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.</i>
<i>Korxonalarining o'z mablag'lari</i>	25,7	37,1	40,9	33,6	17,6
<i>Tijorat banklarining kreditlari</i>	14,1	8,2	7,8	6,3	2,6
<i>Davlat budjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarning pul mablag'lari</i>	8,4	11,4	8,7	6,7	9,4
<i>Xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar</i>	42,9	42,7	41,6	53,4	61,0
<i>Boshqa manbalar</i>	8,9	0,6	1,0	0,0	9,4
<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami</i>	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish

manbalarining umumiy hajmida xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga

nisbatan yuqori sur'atda o'sgan. Bu esa, mazkur davrda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiya qilish siyosatini izchillik bilan davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida tijorat banklari kreditlarining ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa,

investitsiyalarni ichki manbalar hisobidan moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Shuningdek, 2021-2023-yillarda davlat budjeti mablag'lari va davlatning budjetdan tashqari jamg'armalarining pul mablag'larining asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmidagi salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarning miqdori va darajasi

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<i>Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutalarda berilgan kreditlar, mlrd. so'm</i>	138 106	162 663	185 118	212 036	228 718
<i>Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda</i>	51,1	51,4	48,8	46,3	44,4

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarning miqdori 2020-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2021-2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklarining kreditlaridan, shu jumladan,

valyutaviy kreditlaridan foydalanish imkoniyati bevosita kreditlarning, shu jumladan, valyutaviy kreditlarning foiz stavkalarining darajasiga bog'liq. Chunki, foiz stavkalari kreditlarning baholari hisoblanadi. kreditlarning foiz stavkalari qanchalik baland bo'lsa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasi shunchalik past bo'ladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari darajasiga baho beramiz.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkalari, foizda

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<i>Milliy valyutadagi kreditlar</i>	22,3	20,8	21,9	23,1	23,8
<i>Xorijiy valyutadagi kreditlar</i>	6,9	6,7	6,7	8,8	9,7

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlar o'rtacha

yillik foiz stavkasi 2020-2024-yillarda sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu esa, tijorat banklarining kredit operatsiyalarini

rivojlantirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan kreditlarning oʻrtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oʻsish tendensiyasiga ega boʻlgan. Buning ustiga, xorijiy valyutadagi kreditlarning

oʻrtacha yillik foiz stavkasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi uzoq muddatli depozitlarning foiz stavkalarini mazkur davrda oshganligi bilan izohlanadi (4-jadval).

4-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarining xorijiy valyutadagi muddatli depozitlarining oʻrtacha yillik foiz stavkalari, foizda

Koʻrsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
1 yilgacha muddatdagi xorijiy valyutadagi depozitlarning oʻrtacha yillik foiz stavkasi	3,4	3,3	2,9	3,8	2,9
1 yildan ortiq muddatdagi xorijiy valyutadagi depozitlarning oʻrtacha yillik foiz stavkasi	4,9	4,8	3,7	3,8	5,1

4-jadvaldan aniq koʻrinadiki, respublikamiz tijorat banklarining 1 yilgacha muddatdagi xorijiy valyutadagi depozitlarining oʻrtacha yillik foiz stavkasi 2020-2022-yillarda pasayish tendensiyasiga ega boʻlgan. Bu esa, mazkur davrda xorijiy valyutalardagi depozitlarning taklifini koʻpayganligi bilan izohlanadi.

Respublikamiz tijorat banklarining 1 yildan ortiq muddatdagi xorijiy valyutadagi depozitlarining oʻrtacha yillik foiz stavkasi 2020-2022-yillarda oshish tendensiyasiga ega boʻlgan, biroq, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini banklar tomonidan kreditlash boʻyicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

❖ xorijiy banklar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yirik milliy eksportyorlarni kreditlash orqali ularning tashqi bozorlarda xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishida muhim rol oʻynagani holda, oʻzlari ham tashqi savdoni moliyalashtirish manbalarini diversifikasiya qilish imkoniga ega boʻladi;

❖ xalqaro faktoring tashqi savdoni moliyalashtirishning samarali zamonaviy

mexanizmi hisoblanadi. U nafaqat eksportyorning joriy faoliyatini kreditlash, balki uning kredit riskini minimallashtirish, xalqaro biznesni yuritish bilan bogʻliq boʻlgan nomaʼlum qonunchilik, xorijiy til, debitor qarzdorlikni undirishning nomaʼlum tartibi, kontragentning mamlakatidagi savdo amaliyoti kabi muammolarni hal qilish imkonini ham beradi;

❖ xalqaro kreditlar hisobidan korxonalarining eksportini kreditlash amaliyoti davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlanishi lozimligi xususidagi xulosa respublikamiz bank amaliyoti uchun amaliy ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, birinchidan, banklarning eksport kreditlarini davlat tomonidan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash amaliyoti mavjud emas; ikkinchidan, xorijiy kredit liniyalari hisobidan berilayotgan kreditlarning foiz toʻlovlarini bonifikasiya qilish amaliyotga joriy etilmagan;

❖ anʼanaviy forfeytingni respublikamiz amaliyotida qoʻllab boʻlmashligining asosiy sababi shundaki, respublikamizda eksportchi va importchi korxonalarining birontasi ham xalqaro reyting agentliklarining reyting baholariga ega emas. Shu sababli, ular tomonidan akseptlangan tijorat veksellarini xorijiy banklar sotib olmaydi;

❖ O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Buning ustiga, mazkur ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sgan;

❖ respublika tijorat banklari kreditlarining asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmidagi salmog'i 2020-2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

❖ respublikamiz tijorat banklarining xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish maqsadida berilgan kreditlarning miqdori 2020-2024-yillarda o'chsish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2021-2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan;

❖ mamlakat tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, xorijiy valyutadagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi uzoq muddatli depozitlarning foiz stavkalarini mazkur davrda oshganligi bilan izohlanadi.

Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo faoliyatini banklar tomonidan kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni malga oshirish lozim:

1. Kompaniyalarning texnika va texnologiyalar shaklidagi investision tovarlar importi bo'yicha to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq to'lanishini respublikamiz banklari uchun innovasion kreditlash shakli bo'lgan kontokorrent kreditlari hisobidan ta'minlash maqsadida, birinchidan, faqat sof keltirilgan qiymat (Net present value), qoplashning diskontlashgan muddati (Pay-back period) va rentabellikning ichki me'yori (Internal rate of return) ko'rsatkichlari bo'yicha samaradorligini nisbatan yuqori bo'lgan investitsiya loyihalari uchun import qilinayotgan investision tovarlari summasini kontokorrent kreditlari hisobidan to'lash kerak; ikkinchidan, sifatsiz investision tovarlar etkazib berilishini va investision tovarlarni umuman etkazib berilmasligi riskini oldini olish maqsadida xorijiy eksportchi kompaniya bankining investision tova'prlarning sifati yuzasidan beriladigan kafolatidan foydalanish zarur; uchinchidan, kontokorrent krediti bo'yicha kredit riski darajasini oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida kredit shartnomasida kredit oluvchiga har oyning oxirgi ish kunida kontokorrent hisobraqamining kreditli qoldig'ini ta'minlash majburiyatini yuklash lozim.

2. Mahsulotlarini eksport qilayotgan korxonalarning eksport tushumini o'z vaqtida ola olmay qolishi natijasida berilgan kreditni qaytara olmaslik holatiga barham berish uchun, birinchidan, eksport qilinayotgan mahsulotlarning pulini oluvchining banki tomonidan ochiladigan chaqirib olinmaydigan hujjatlashtirilgan akkreditiv bilan to'lanishiga erishish lozim; ikkinchidan, eksport qilinayotgan mahsulotlarning to'lovi yuzasidan importyor bankining kafolatini olish talabini qo'yish kerak; uchinchidan, eksport bitimi bo'yicha tashqi savdo bitimiga valyuta pisandasini qo'llash bandini kiritish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni.
3. Martensen M. Rethinking strategies//Trade Finance Magazine, September, 2010. – R. 5-8.
4. Лопатина Д.А. Международный факторинг как инструмент финансирования: основы правовой регламентации//Банковское право. – Москва, 2009. <http://www.lawmix.ru/bux/32633/-Дана> доступа: 09.10.2013.
5. Смирнов А.Л. Технологии экспортного финансирования//Банковское дело. – Москва, 2012. – №4. – С. 60-61.
6. Хмелевская Н.Г. Чрезвычайные кредитные линии МВФ в системе предотвращения международных финансовых кризисов//Вестник Финансовой академии. – Москва, 2002. – №2. – С. 103-112.
7. Axmedov F.X. O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga ko'rsatadigan xizmatlarini takomillashtirish. I.f.b.f.d. avtoref. – Toshkent, 2017. – 47 b.
8. Majidov J.K. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini oshirish yo'llari. I.f.b.f.d. avtoref. – Toshkent, 2020. – 54 b.
9. Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 29.